


FARG'ONA VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

2024- YIL YANVAR- MART  
OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA  
INVESTITSIYALAR



Farg'ona 2024- yil

# ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR



2024-yilning yanvar-mart oylarida 5137,8 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 65,5%i yoki 3366,7mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 34,5% yoki 1771,1 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023-yildagi ulushiga nisbatan 11,1% punktga kamaydi, 2,9 %ni yoki 150,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 4986,9 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 97,1 % o'zlashtirilib, 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,1% punktga ko'paydi.

# MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 21,6 mlrd.so'm (0,4 % va 0,9 % punktiga kamaydi), Respublika budjeti 104,4 mlrd. so'm (2,0 % va 9,7 % punktga kamaydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 24,7 mlrd. so'm (0,5 % va 0,4 % punktga kamaydi) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.



# MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

2024-yilning yanvar-mart oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1189,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 23,2 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,3 % i yoki 581,6 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1825,8 mlrd. so'm bilan 35,5 %ni tashkil etdi, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 507,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,9 % ini tashkil etib, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 882,5 mlrd. so'm bilan 17,2 %ni tashkil etdi.

## Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari tarkibi

1

### Korxonalar va tashkilotlar mablag'i

Hajmi	1189,5 mlrd. so'm
O'sishi	87,9%
Jamiga nisbatan	23,2%

2

### Aholi mablag'lari

Hajmi	581,6 mlrd. so'm
O'sishi	103,7 %
Jamiga nisbatan	11,3 %

3

### To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

Hajmi	1825,8 mlrd. so'm
O'sishi	274,4 %
Jamiga nisbatan	35,5 %

4

### Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari

Hajmi	507,5 mlrd. so'm
O'sishi	102,8%
Jamiga nisbatan	9,9%

5

### Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar

Hajmi	882,5 mlrd. so'm
O'sishi	158,7 %
Jamiga nisbatan	17,2%

# Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	Markazlashgan investitsiyalar, %da	Markazlashmagan manbalar, %da
Farg'ona viloyati	5137,8	2,9	97,1
Farg'ona sh.	1087,4	5,1	94,9
Qo'qon sh.	357,0	1,7	98,3
Quvasoy sh.	318,3	0,0	100,0
Marg'ilon sh.	220,5	0,8	99,2
Oltiariq	307,6	1,5	98,5
Qo'shtepa	149,4	1,1	98,9
Bag'dod	163,3	1,2	98,8
Buvayda	178,3	1,7	98,3
Beshariq	217,4	1,0	99,0
Quva	100,1	1,0	99,0
Uchko'prik	394,7	0,5	99,5
Rishton	120,0	6,5	93,5
So'x	46,3	12,1	87,9
Toshloq	241,8	0,3	99,7
O'zbekiston	351,0	0,9	99,1
Farg'ona t	356,1	2,5	97,5
Dang'ara	238,3	2,5	97,5
Furqat	115,8	1,7	98,3
Yozyovon	174,5	21,3	78,7




Tyulyagin.ru

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, %da



— korxonalar va tashkilotlar mablag'i

— bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari




Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha yuqori ko'rsatkich xoriy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar mablag'i investitsiyalarda kuzatilib, 2023 - yilning mos davriga nisbatan 22,7 %ga ko'paydi.

## 2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da	Viloyatida ulushi, %da
Farg'ona viloyati	<b>5137,8</b>	<b>122,0</b>	<b>100,0</b>
Farg'ona sh.	<b>1087,4</b>	102,5	21,2
Qo'qon sh.	<b>357,0</b>	162,8	6,9
Quvasoy sh.	<b>318,3</b>	383,5	6,2
Marg'ilon sh.	<b>220,5</b>	114,5	4,3
Oltiariq	<b>307,6</b>	128,9	6,0
Qo'shtepa	<b>149,4</b>	53,5	2,9
Bag'dod	<b>163,3</b>	127,3	3,2
Buvayda	<b>178,3</b>	156,9	3,5
Beshariq	<b>217,4</b>	82,0	4,2
Quva	<b>100,1</b>	63,7	1,9
Uchko'prik	<b>394,7</b>	189,1	7,7
Rishton	<b>120,0</b>	49,5	2,3
So'x	<b>46,3</b>	156,7	0,9
Toshloq	<b>241,8</b>	136,1	4,7
O'zbekiston	<b>351,0</b>	99,8	6,8
Farg'ona t.	<b>356,1</b>	157,8	6,9
Dang'ara	<b>238,3</b>	197,5	4,6
Furqat	<b>115,8</b>	319,3	2,3
Yozyovon	<b>174,5</b>	201,0	3,4

## 2024- yil yanvar-mart oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2023- yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 319,3% bilan Furqat tumani kuzatildi. Bu asosan "MUSAVARTEX" MChJ - Ip kalava ishlab chiqarishni kengaytirish tashkil etish hisobiga amalga oshirildi.

Shuningdek, Quvasoy shahrida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 383,5 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "Plastic doors" MChJ - zamonaviy plastik eshik, romlar va qulf ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga tashkil etdi.

Yozyovon tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 201,0 %ni tashkil etgan bo'lib, bu natija "POSCO international textile" MCHJ XK - tomonidan paxtachilik klasterini kengaytirish o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibi

42,2 %

Mashina, uskuna, inventar

45,0 %

Qurilish-montaj ishlari

12,8 %

Boshqa xarajatlar

57,8 %

Yangi qurilish

30,9 %

Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya

11,3 %

Boshqa yo'nalishlar



Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 2 167,3 mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 42,2 %ini tashkil etdi. Qurilish-montaj ishlari bo'yicha 2 309,6 mlrd.so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 45,0 %) va boshqa xarajatlarga 660,9 mlrd. so'm (12,8 %) o'zlashtirildi.

Shahar, tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 55,8 % yoki 198,9 mlrd. so'm bilan Farg'ona tumanida kuzatildi.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Furqat tumanida kuzatilib, 81,3 % ni yoki 94,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2 969,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 57,8 % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Uchko'prik tumanida kuzatilib, u 89,2% yoki 352,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1 585,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 30,9 % ini tashkil etdi. Qolgan 11,3 %, ya'ni 582,5 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Shahar , tumanlar bo'yicha yangi qurilish ishlarining ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




**Shahar, tumanlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da**




**Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da**



## Shahar, tumanlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



## Shahar, tumanlar bo'yicha qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



## Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 2 443,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 47,6 % i o'zlashtirilgan.



Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

**KIMYO  
MAHSULOTLARNI  
ISHLAB CHIQRISH**  
198,2 mlrd. so'm  
Ulushi 3,9%

**BOSHQA NOMETALL  
MINERAL  
MAHSULOTLAR  
ISHLAB CHIQRISH**  
608,1 mlrd. so'm  
ulushi 11,8 %

**TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI ISHLAB  
CHIQRISH**  
904,4 mlrd. so'm  
ulushi 17,6 %

## Viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



## Shahar, tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Shahar va tumanlar	Jami, mlrd. so‘m	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
<b>Farg‘ona viloyati</b>	<b>2 730,0</b>	<b>1 825,8</b>	<b>21,6</b>	<b>882,6</b>
Farg‘ona sh.	457,4	271,3	21,6	164,5
Qo‘qon sh.	209,9	209,9	-	-
Quvasoy sh.	258,9	176,8	-	82,1
Marg‘ilon sh.	130,5	-	-	130,5
Oltiariq	158,9	108,5	-	50,4
Qo‘shtepa	18,3	10,5	-	7,8
Bag‘dod	83,2	64,5	-	18,7
Buvayda	89,2	35,2	-	54,0
Beshariq	35,1	35,1	-	-
Quva	-	-	-	-
Uchko‘prik	304,6	304,6	-	-
Rishton	67,2	62,0	-	5,2
So‘x	13,7	7,9	-	5,8
Toshloq	165,6	75,2	-	90,4
O‘zbekiston	106,9	83,4	-	23,5
Farg‘ona t.	245,9	138,2	-	107,7
Dang‘ara	190,6	112,3	-	78,3
Furqat	93,0	29,3	-	63,7
Yozyovon	101,1	101,1	-	-


**2024- yil yanvar-mart oylarida 2 730,0 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 53,1 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.**

**Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1 825,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 904,2 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.**

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan joriy davrda 1 825,8mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 21,6 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 213,8 % ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi





# IJTIMOIIY SOHA OBYEKTLARINI ISHGA TUSHIRISH

Jami turar-joylar  
305,7 ming. kv.m

Yakka tartibda qurilgan  
turar-joylar  
305,7 ming kv.m

Namunaviy loyihalar asosida  
qurilgan turar-joylar  
- ming kv.m



Turar-joylarni ishga tushirish	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
Farg'ona viloyati	1 231	305,7
Farg'ona sh.	122	29,1
Qo'qon sh.	99	25,7
Quvasoy sh.	45	12,8
Marg'ilon sh.	61	13,6
Oltiariq	89	24,3
Qo'shtepa	93	26,0
Bag'dod	58	15,1
Buvayda	33	9,8
Beshariq	71	15,9
Quva	146	45,7
Uchko'prik	28	7,7
Rishton	59	5,7
So'x	9	1,7
Toshloq	94	20,1
O'zbekiston	26	6,1
Farg'ona t	92	20,6
Dang'ara	31	7,8
Furqat	29	6,1
Yozyovon	46	11,9

## Farg'ona viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

Suv tarmog'i qurilishida jami 1,0 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 10,8 %i aholi mablag'i va 89,2 %i boshqa manbalar hisobidan o'zlashtirildi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**